SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 1
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

MEHNAT MIGRATSIYASINING QISHLOQ OILALARI IJTIMOIY HAYOTIGA TA’SIRI

Toshmamatov Azizbek Tohir o‘g‘li

Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati Boysun tumanida mehnat migratsiyasi jarayonlari va uning qishloq oilalarining ijtimoiy hayotiga ta'siri dala tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yarim tuzilgan intervyu usulidan foydalanilib, respondentlarning mehnat migratsiyasiga oid qarashlari, xorijga chiqish sabablari, migratsiyaning oilaviy munosabatlar, iqtisodiy ahvol hamda gender munosabatlariga ta'siri o'rganildi.

Kalit so‘zlar

Mehnat migratsiyasi, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, qishloq oilalari, Boysun tumani, Surxondaryo viloyati, migratsiya jarayonlari, oilaviy munosabatlar, gender munosabatlari, iqtisodiy holat, mehnat bozori, ijtimoiy hayot, dala tadqiqotlari, yarim tuzilgan intervyu.

Kirish

XXI asrda mehnat migratsiyasi dunyo miqyosida eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biriga aylandi. Globallashuv, mehnat bozoridagi tafovutlar, iqtisodiy tengsizlik va ishchi kuchiga bo‘lgan talabning ortishi natijasida millionlab insonlar yaxshi daromad topish maqsadida o‘z yashash hududlarini tark etib, boshqa mamlakatlarga yoki mamlakat ichidagi yirik shaharlarga ko‘chib ishlashni afzal ko‘rmoqda. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki oilaviy munosabatlar, demografik holat, gender munosabatlari va mahalliy ijtimoiy hayotga ham sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston ham mehnat migratsiyasi keng tarqalgan davlatlardan biri hisoblanadi[1].

So‘nggi yillarda xorijiy davlatlarda, xususan Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Turkiya va Yevropa mamlakatlarida mehnat qilayotgan o‘zbekistonliklar sonining ortishi ushbu masalaning ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilishini talab etmoqda. Mehnat migratsiyasi ko‘plab oilalarning moddiy ahvolini yaxshilashga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, oiladan uzoqda yashash, farzandlar tarbiyasi, oilaviy munosabatlarning o‘zgarishi hamda ijtimoiy-ruhiy muammolar kabi salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Surxondaryo viloyati,

xususan Boysun tumani aholisi orasida ham mehnat migratsiyasi keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab oilalar o‘z turmush darajasini yaxshilash maqsadida xorijiy davlatlarga ishlash uchun ketmoqda[2].

Biroq ushbu hududda mehnat migratsiyasining oilaviy va ijtimoiy hayotga ta'siri etnologik va antropologik yondashuv asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi Boysun tumanida mehnat migratsiyasining qishloq oilalari ijtimoiy hayotiga ta'sirini dala etnografik tadqiqotlari asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida yarim tuzilgan intervyu usulidan foydalanilib, respondentlarning migratsiya sabablari, iqtisodiy manfaatlari, oilaviy munosabatlarga ta'siri, gender jihatlari hamda ichki va tashqi migratsiyaga oid qarashlari o‘rganildi. Olingan natijalar mehnat migratsiyasining ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, uning mahalliy jamiyat va oila institutiga ta'sirini baholash hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Boysun tumanida olib borilgan dala tadqiqotlari asosida mehnat migratsiyasining qishloq oilalari hayotiga ta'siri etnologik nuqtai nazardan tahlil qilinib, respondentlarning bevosita fikrlari asosida migratsiyaning zamonaviy xususiyatlari yoritilgan[3].

Mazkur suhbat Surxondaryo viloyati Boysun tumani Shironobod mahallasida istiqomat qiluvchi Abdullayev Abduhalil bilan olib borildi. Suhbatdan maqsad — mehnat migratsiyasi jarayonlari, uning sabablari va oilaga ta’sirini o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Suhbatdosh suhbatda ishtirok etishga rozilik bildirdi va o‘z hayoti hamda oilasi haqida batafsil ma’lumot berdi. Ushbu ma’lumotlar Boysun tumanida olib borilgan dala tadqiqoti davomida bevosita suhbatdoshning o‘zidan eshitilib yozib olindi[4].

Abdullayev Abduhalil 1939-yilda Boysun tumani Shironobod mahallasida tug‘ilgan. 1958-yilda 10-sinfni tamomlab, harbiy xizmatga ketgan va 4 yil davomida Rossiya Federatsiyasining Kaliningrad viloyatida xizmat qilgan. Shu davrda u tanklarni sozlash yo‘nalishida 3 yil o‘qib, mexanik sifatida faoliyat yuritgan. 1975-yilda Toshkent elektrotexnika universitetida tahsil olgan. O‘qishni tugatgach, o‘z qishlog‘iga qaytib kelib, Boysun tumanida operator sifatida ish boshlagan va 38 yil davomida turli lavozimlarda mehnat qilgan. Turmush o‘rtog‘i To‘raqulova Nigora 1965-yilda tug‘ilgan bo‘lib, kasalxonada farrosh bo‘lib ishlagan[5].

Suhbat davomida uning oilasida mehnat migratsiyasi mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Abduhalil boboning 2 nafar o‘g‘il va 3 nafar qiz farzandi bor bo‘lib, ularning barchasi o‘rta maxsus ma’lumotga ega. Farzandlarining ayrimlari xorijiy davlatlarda ishlamoqda. Jumladan, o‘g‘li Abdullayev Botir 1985-yilda tug‘ilgan, oilali, turmush o‘rtog‘i Xojanazarova Shohista (1986-yil tug‘ilgan) bo‘lib, ularning 3 nafar farzandi (2 qiz va 1 o‘g‘il) bor. Botir 1995–2000-yillar davomida Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida qurilish sohasida ishlagan, hozirda esa Bolgariyada 3 yildan buyon alyuminiy zavodida faoliyat yuritmoqda. Yana bir o‘g‘li Abdullayev Zokir 1988-yilda Boysun tumanida tug‘ilgan bo‘lib, hozirda Rossiya Federatsiyasida quruvchi usta sifatida ishlamoqda. U hali uylanmagan va hozirda o‘z sharoitini yaxshilashga harakat qilmoqda[6].

Suhbatdoshning aytishicha, farzandlari xorijga asosan mustaqil tarzda, ya’ni hech qanday rasmiy agentliksiz chiqib ketishgan. Viza va ruxsat masalalari ba’zi

qiyinchiliklar bilan hal qilingan. Xorijiy tilni bilish darajasi ish topishda va muhitga moslashishda muhim rol o‘ynaydi. Xorijda ular ko‘pincha vatandoshlar bilan aloqada bo‘lib turishadi, bu esa ularning yashashini osonlashtiradi. Ish joylari asosan xavfsiz bo‘lib, daromad topish imkoniyati mavjud. Mahalliy aholi va rasmiylarning migrantlarga munosabati turlicha bo‘lib, ba’zi joylarda yaxshi, ba’zi joylarda esa murakkab bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillarda ayrim hududlarda migrantlarga munosabat biroz o‘zgarib, murakkablashganini ham ta’kidladi. Oila a’zolaridan hech kim xorij fuqaroligini olmaga[7].

Migratsiyaning oilaga ta’siri haqida gapirar ekan, u bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari borligini aytdi. Ijobiy tomoni — oilaning moddiy ahvoli yaxshilanadi, daromad ortadi va yashash sharoiti yaxshilanadi. Salbiy tomoni esa — uzoq vaqt oiladan uzoqda bo‘lish natijasida oila a’zolari o‘rtasidagi yaqinlik kamayishi, bolalar tarbiyasida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin[8].

Ayollar migratsiyasi haqida suhbatdosh shuni ta’kidladi: avvallari asosan erkaklar chet elga ishlash uchun ketgan bo‘lsa, hozir ayollar ham ketmoqda. Ayollarning xorijga chiqish sabablari erkaklarnikiga o‘xshash — asosan iqtisodiy ehtiyoj bilan bog‘liq. Biroq jamiyatda ayollarga nisbatan qarashlar erkaklarnikidan farq qiladi. Ayrim hollarda bu ijtimoiy-axloqiy muammolarni, jumladan ajrim yoki oilaviy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayol yoki erkak xorijdan qaytgandan keyin oilaviy munosabatlar turlicha shakllanishi mumkin.

Bugungi kunda ba’zi fuqarolar xorijga chiqish o‘rniga Toshkent yoki O‘zbekistonning boshqa hududlarida ishlashni afzal ko‘rmoqda. Bunga sabab — oila yaqinida bo‘lish, xavfsizlik va hujjatlar bilan bog‘liq muammolarning kamligi hisoblanadi. Ichki migratsiya oilaga kamroq salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayollar va erkaklar uchun ichki migratsiya tajribasi ham ma’lum darajada farq qilishi mumkin[9].

Shaxsiy rejalari haqida gapirar ekan, Abdullayev Abduhalil o‘zi xorijda ishlashni rejalashtirmasligini, chunki u uzoq yillar davomida o‘z yurtida ishlaganini va hozir shu yerda yashayotganini aytdi. Boshqa hududlarda ishlashni ham rejalashtirmagan.

Mahallaning ayrim aholisi nega xorijga chiqmasligi haqida fikr bildirar ekan, u bunga turli sabablar borligini aytdi: ba’zilar xohlamaydi, boshqalar esa imkoniyat yetishmasligi sababli chiqmaydi. Bu qaror odatda oilaviy kelishuv asosida qabul qilinadi va bunda erkaklar bilan birga ayollar ham ishtirok etadi.

Migrantlarga yordam masalasida suhbatdosh ularni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidladi. Xususan, huquqiy yordam, til o‘rgatish, ish topishda ko‘maklashish muhim. Shu bilan birga, odamlarni O‘zbekistonning o‘zida ish bilan ta’minlash ham muhim deb hisoblaydi. Erkak va ayol migrantlarning ehtiyojlari ba’zi jihatlarda farq qilishi mumkin.

Suhbat yakunida u o‘zi haqida qisqacha ma’lumot berdi: u 1939-yilda tug‘ilgan, oilali, 5 nafar farzandi bor. Ta’limi oliy, uzoq yillar davomida ishlagan va hozirda nafaqada. Oilasining ijtimoiy va moddiy ahvoli o‘rtacha bo‘lib, farzandlarining xorijda ishlashi orqali qo‘shimcha daromad kelib turadi[10].

Mazkur suhbat dala tadqiqoti davomida suhbatdoshning o‘zidan bevosita eshitilib yozib olindi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mehnat migratsiyasi Surxondaryo viloyati Boysun tumani aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Dala tadqiqotlari davomida o‘tkazilgan intervyular tahlili mehnat migratsiyasining asosiy sabablari oilaning moddiy ahvolini yaxshilash, barqaror daromad topish, uy-joy qurish, farzandlar ta’limi va boshqa zarur ehtiyojlarni qoplash bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Respondentlarning aksariyati xorijda ishlash orqali oilasining turmush darajasini yaxshilashga erishganini ta’kidlagan bo‘lsa-da, uzoq muddat davomida oiladan ajralib yashashning salbiy oqibatlari ham mavjudligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mehnat migratsiyasi oila daromadlarining ortishiga, yashash sharoitining yaxshilanishiga va uy-joy masalasining hal etilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ota-onalar va farzandlarning uzoq vaqt bir-biridan ajralib yashashi, oilaviy munosabatlarning zaiflashishi, farzandlar tarbiyasida muammolarning yuzaga kelishi hamda ruhiy bosimning ortishi migratsiyaning salbiy oqibatlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ayollar migratsiyasining kengayishi oiladagi ijtimoiy rollarning o‘zgarishiga va farzandlar tarbiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi respondentlarning fikrlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijalari xorijiy tilni bilish, huquqiy bilimlarga ega bo‘lish va migratsiya jarayonlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish xorijda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatini olib borishning muhim omillaridan biri ekanligini ham tasdiqladi. Shuningdek, vatandoshlar bilan ijtimoiy aloqalar yangi muhitga moslashish va mehnat faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Respondentlarning fikriga ko‘ra, mamlakat ichida barqaror va munosib daromad keltiradigan ish o‘rinlari yaratilsa, ko‘plab fuqarolar xorijga chiqishni emas, balki o‘z yurtida ishlashni afzal ko‘rishadi. Shu sababli hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish tizimini rivojlantirish, mehnat migrantlarini huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda migrant oilalariga ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абашин С. Н. Возвращение в Центральную Азию: миграция, ислам и государство. – М.: Новое литературное обозрение, 2013. – 576 с.
2. Ивахнюк И. В. Международная трудовая миграция: учебное пособие. – М.: Экономический факультет МГУ, 2005. – 286 с.
3. Castles S., De Haas H., Miller M. J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. – 6th ed. – New York: Guilford Press, 2020. – 464 p.
4. De Haas H. Migration: A Theoretical Perspective // International Migration Review. – 2021. – Vol. 55. – No. 1. – P. 8–36.
5. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2024. – Geneva: IOM, 2024. – 540 p.
6. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook: Trends 2024. – Geneva: ILO, 2024. – 192 p.
7. United Nations. International Migration 2024: Highlights. – New York: United Nations, 2024. – 68 p.

8. Қаюмов А. А. Ўзбекистонда меҳнат миграцияси: ижтимоий-иқтисодий таҳлил. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2020. – 248 б.
9. Тўхтаходжаева М. А. Ўзбекистонда миграция жараёнлари ва уларнинг ижтимоий оқибатлари. – Тошкент: Universitet, 2019. – 214 б.
10. Azizbek Toshmamatov. Boysun tumanida mehnat migratsiyasining oilaviy hayotga ta'siri: dala tadqiqotlari materiallari // Muallifning dala etnografik materiallari. – Boysun tumani, Surxondaryo viloyati, 2026.